



**HAMKORLIK PEDAGOGIKASI VOSITASIDA
O‘QUVCHILARNING IJTIMOIIY MUNOSABATLARGA TAYYORLASH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Buxoro Osiyo xalqaro Universiteti
Pedagogika yo`nalishi magistranti
Karimova Dilfuza Mahammadjonovna*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada hamkorlikda o`qitish texnologiyasi o`rni va ahamiyati haqida ma`lumotlar yoritilgan.*

***Аннотация:** В данной статье представлена информация о роли и важности технологии кооперативного обучения.*

***Annotation:** This article provides information on the role and importance of cooperative learning technology.*

***Kalit so`zlar:** hamkorlikda o`qitish, an`anaviy ta`lim, kreativlik, jamoaviy ishlash.*

***Ключевые слова:** совместное обучение, традиционное образование, творчество, работа в команде.*

***Keywords:** cooperative teaching, traditional education, creativity, teamwork.*

Hamkorlik pedagogikasi an`anaviy o`qitishdan farq qilib, bola bilan do`stona munosabat o`rnatishga qaratiladi. Endi oldingi an`anaviy “Men” o`rniga “Biz”, ya`ni hamkorlikda –“sub`ekt”-“sub`ekt” munosabatlariga asoslangan holatda pedagogik faoliyat tashkil etiladi. “Hamkorlikda ishlash” tamoyili bola shaxsini chuqur bilishga asoslanadi. Hamkorlik pedagogikasining konsepsiyasi quyidagicha:

o`quvchi bilan hamkorlik munosabati;

o`quvchida ijobiy emotsional qoniqish hosil qilish;

maktab ta`limini muvaffaqiyatli amalga oshirish;

muloqot va mehnat qilish ko`nikma va malakasini hosil qilish;

o`quvchilar bilan birgalikda mehnat qilish va yutuqqa erishishga ishontiriish;



o'quvchiga yordam berish g'oyasi;
har bir o'quvchi sinf ishida bemalol erkin qatnashishi imkoniyatiga ega bo'lishi kerak;

bolalar ishini baholash ya'ni rag'batlantirish. Darsni samarali tashkil etish uchun o'qituvchilarga tavsiyalar:

O'quvchini mustaqil hayotga tayyorlash;

Sinfda ijobiy emostional (hissiy) muhit yaratish;

Darsga ishchanlik kayfiyatida kirishish;

Darsga mas'uliyat bilan kirishish;

O'quvchilar bilan hamkorlik qilish;

Zamonaviy usullar asosida dars o'tish;

O'yin texnologiyalaridan foydalanish;

Ijodkorlik ya'ni muntazam o'z ustida ishlash kabilardir.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi davrida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar va tub islohotlar, albatta, hayotning o'zi taqozo qilgan u yoki bu muammolar va masalalar bilan to'qnashadi. Bu – qonuniy va tabiiy rivojlanish jarayoni. Shu bois, ta'limining barcha bosqichlaridagi boshqaruvchilarning vazifasi – mazkur muammolarga o'z vaqtida yechim topish va shu orqali butun tizimning rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Bugungi o'zgarishlar davrida jamiyatimiz hayotida murakkab, lekin davr taqozo qilgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatda, iqtisodiyotda, umuman, hayotimizning barcha jabhalaridagi bunday olamshumul o'zgarishlarning amalga oshirilishi o'zimizning ham o'zgarishimizni, ya'ni o'zligimizni anglashni talab qiladi. Bu masala oldimizga qo'yilgan vazifalarning eng murakkabi desak, adashmaymiz. Davr taqozo qilayotgan bunday vazifalarni muvaffaqiyat bilan bajarish uchun yosh avlod oldida – yangi bilimlarni egallash va uni amaliyotga tatbiq etish masalasi dolzarb bo'lib turibdi. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, bu bilimlarning eng muhim tarkibiy qismi – boshqarish san'ati va fani ekanligini bildirmoqda.;



Hamkorlik pedagogikasi o'quvchilarning mustaqil fikrlash va yechim qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar birgalikda muammoni hal qilish, g'oyalarni muhokama qilish, yechimlarni topish va tanlashda ishtirok etadilar. Bu jarayonda ular o'z fikrlarini ifoda etish, tanqidiy fikrlash, bahslash, murosa qilish va mas'uliyatni o'z zimmalariga olishni o'rganadilar. Hamkorlik pedagogikasi o'quvchilarni mustaqil fikrlash va yechim qabul qilishga o'rgatishda quyidagi imkoniyatlarni beradi: O'quvchilar o'zaro muloqot va muhokama qilish orqali turli xil nuqtai nazarlarni ko'rib chiqadilar. Ular o'z fikrlarini ifoda etish, argumentlarni keltirish va boshqalarning fikrlarini eshitish imkoniga ega bo'ladilar. O'quvchilar o'zaro yordam berib, muammoni hal qilish strategiyasini birgalikda ishlab chiqadilar. Ular o'z fikrlarini himoya qilish, boshqalarga tushuntirish va ularning nuqtai nazarini qabul qilishni o'rganadilar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki hamkorlik pedagogikasi mustaqil fikrlash va yechim qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi afzalliklarni taklif etadi: O'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi ortib, ular o'z fikrlarini ochiqchasiga ifoda etishga moyil bo'ladilar. Ularning tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi va ular muammoni turli xil nuqtai nazardan ko'rib chiqishni o'rganadilar. O'quvchilar murosa qilish va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadilar. Ular o'z fikrlarini boshqalarga tushuntirish va ularning nuqtai nazarini qabul qilish qobiliyatini oshiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nutq madaniyati-vikipediya
2. 1. Абдуллаева Ш А. Хамкорлик педагогикаси. – Т.: Фан ва техналогия, 2017.